



SO‘Z-GAPLAR VA TO‘LIQSIZ GAPLAR: SINTAKTIK SODDALIK VA SEMANTIK TO‘LIQLIK MUAMMOSI

Ibragimova Muqaddas
SamDCHTI o‘qituvchisi
Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda muhim sintaktik birliklardan biri bo‘lgan so‘z-gaplar va to‘liqsiz gaplarning struktur-semantik hamda kommunikativ-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi — bu ikki hodisaning o‘zaro chegarasini aniqlash, ularning nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlarini, emotsional-ekspressiv va antropotsentrik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Xorijiy tilshunoslar — F. Ameka va D. Vilkinsning “Interjections” nomli qo‘llanmasida keltirilgan fikrlar maqolaning nazariy asosini boyitadi. Ular undovlarni (interjektsiyalarni) so‘z-gaplarning dastlabki shakli sifatida talqin qilib, bu birliklarning so‘z yasashda ham ishtirok etishini ta’kidlaydilar.

Maqolada so‘z-gaplar masalasiga oid qarashlar N.S. Kovalev, V.V. Babaytseva, O.V. Prussova kabi rus tilshunoslarining tadqiqotlari asosida yoritilib, yanada mukammal va tizimli tarzda takomillashtirildi.

N. S. Kovalev so‘z-gaplarni muloqot jarayonida mustaqil kommunikativ birlik sifatida, shuningdek, virtual muloqotda inson hissiy holatini ifoda etuvchi vosita sifatida talqin etadi. V.V. Babaytseva esa so‘z-gaplar - bo‘linmas, leksiko-morfologik xususiyatga ega, emotsional va irodaviy ma’noli mustaqil kommunikativ birliklar ekanini ko‘rsatadi. O. V. Prussova fikricha, so‘z-gaplar - o‘ziga xos turkum bo‘lib, o‘zgarmas, kommunikativ ma’noli, modal munosabatni ifodalovchi, butun gapga nisbatan ishlatiladigan mustaqil birliklardir. Shuningdek, maqolada A. A. Shaxmatovning to‘liqsiz gaplar haqidagi qarashlari ham tahlil qilinadi. Olim to‘liqsiz gaplarni tilning jonli nutqiy shakllaridan biri sifatida baholaydi va ularni bir tarkibli to‘liq gaplar bilan qiyoslab, “grammatik to‘liqlik” tushunchasiga yangicha yondashuvni ilgari suradi. Shu jihatdan maqolada to‘liqsiz gaplarning struktural yetishmovchiligi emas, balki kontekstual to‘liqligi asosida baholanishi ko‘rsatiladi.

Natijada maqolada so‘z-gaplar va to‘liqsiz gaplarning o‘zaro aloqasi, ularning semantik, pragmatik va struktur jihatdan farqlanishi, hamda nutq jarayonida inson hissiyoti, ijtimoiy roli va muloqot konteksti bilan uzviy bog‘liqligi aniqlanadi. Maqola natijalari til birliklarining kommunikativ-funksional tabiatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi va zamonaviy sintaksisda antropotsentrik yondashuvni kuchaytirishga turtki beradi.

Kalit so‘zlar: so‘z-gap, to‘liqsiz gap, kommunikativ birlik, pragmatik funksiya, emotsional-ekspressivlik, antropotsentrik yondashuv, kontekstual to‘liqlik, struktur-semantik tahlil, virtual muloqot, undovlar, interjektsiya, nominativlik, kommunikativlik, til tizimi, kognitiv-pragmatik yondashuv.

KIRISH.

Tilshunoslikda so‘nggi yillarda nutqiy birliklarning kommunikativ, pragmatik va antropotsentrik jihatdan o‘rganilishi alohida ilmiy yo‘nalishga aylandi. Inson omilini markazga qo‘ygan bu yondashuv til hodisalarini nafaqat grammatik tuzilma sifatida, balki nutqiy faoliyatning kommunikativ vositasi sifatida tahlil etishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, so‘z-gaplar va to‘liqsiz gaplar masalasi zamonaviy sintaksisning eng muhim, ammo murakkab mavzularidan biri hisoblanadi.

Tilshunoslikda inson hissiyotlari, emotsional kechinmalari va ruhiy holatini ifodalovchi vositalar qadimdan o‘rganib kelinadi. Bu borada undov so‘zlar (interjections) alohida lingvistik kategoriya sifatida ajralib turadi. Undovlar til tizimining eng qadimiy, tabiiy va hissiy qatlamiga mansub bo‘lib, ular inson nutqida bevosita hayrat, qo‘rquv, g‘azab, quvonch, achinish, hayajon kabi kechinmalarni ifodalashda xizmat qiladi. Shu



jihtadan undovlar soʻzlovchining ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini va muloqotdagi subyektiv munosabatini ifoda etuvchi oʻziga xos kommunikativ vositadir.

Ingliz tilshunosligida undov soʻzlarning oʻrganilishi uzoq tarixga ega. Manbalarda qayd etilishicha, milodiy I asrda yashagan Rim olimi Remni Palemon undovlarni alohida soʻz turkumi sifatida ajratgan. Keyingi asrlarda Gʻarb tilshunosligi doirasida bu birliklarga nisbatan turli nazariy yondashuvlar shakllandi. Umuman olganda, ingliz tilshunoslari undovlarni soʻz tizimining bir qismi, ammo sintaktik jihtadan mustaqil boʻlmagan, semantik jihtadan toʻliq birlik sifatida koʻradilar.

Ingliz tilida “soʻz-gap” (word-sentence) atamasi mustaqil termin sifatida mavjud emas. Biroq oʻzbek tilidagi koʻplab soʻz-gaplar ingliz tilida “interjections” tushunchasi ostida oʻrganiladi. Masalan, oʻzbek tilidagi *ha, yoʻq, voy, afsus, rahmat, xoʻp* kabi soʻz-gaplar ingliz tilida *yes, no, oh, alas, thanks, ok* kabi undovlar orqali ifodalanadi. Bu esa, mazmunan oʻxshash birliklarning turli tillarda farqli terminologik talqin qilinishidan dalolat beradi.

Undovlarning kelib chiqishiga oid qarashlar ham turlicha. Baʼzi manbalarda ularning paydo boʻlishi insoniyatning ibtidoiy hayoti, hattoki hayvonlarning tovushlariga taqlid bilan bogʻlanadi. J. G. Herder fikriga koʻra, ibtidoiy odamlar hayvonlarning tovushlarini kuzatib, ularni oʻz hissiyotlarini ifodalash uchun qoʻllay boshlaganlar. Shu bois, undovlar inson nutqining tabiiy, instinktiv shakli hisoblanadi.

Ingliz tilshunosligida undovlarga berilgan taʼriflar xilma-xil. Masalan, E. Sapir undovlarni “tilning dekorativ, lekin funksional jihtadan ikkinchi darajali qismlari” deb baholagan boʻlsa, R. Jakobson ularni “tilning sof emotsional qobigʻi” deb ataydi. L. Bloomfield undovlarni “kuchli psixologik turtki natijasida yuzaga keladigan tovush ifodalari” sifatida talqin qiladi. R. Trask esa undovlarni “hissiyot ifodalovchi, lekin leksik shaklda mavjud boʻlishi mumkin boʻlgan birliklar” deb izohlaydi.

Zamonaviy tadqiqotchilar orasida T. Varton undovlarni “til va noverbal aloqa oraligʻidagi birliklar” deb koʻradi. Unga koʻra, undovlar nafaqat soʻzlovchining hissiy holatini, balki nutqning pragmatik yoʻnalishini ham ifodalaydi. F. Ameka va D. Vilkins tomonidan berilgan taʼriflarda undovlar “morfo-sintaktik jihtadan mustaqil boʻlmagan, ammo kontekstga bogʻliq holda maʼno ifodalaydigan lingvistik birliklar” sifatida talqin qilinadi.

F. Ameka ingliz tilidagi undovlarni birlamchi (primary interjections) va ikkinchi darajali (secondary interjections) turlarga ajratadi. Birlamchi undovlar mustaqil leksik maʼnoga ega boʻlmagan, sof tovushlardan iborat (masalan, *Oh!, Wow!, Oops!, Ow!, Gee!*), ikkinchi darajali undovlar esa boshqa soʻz turkumlariga mansub boʻlib, emotsional vazifada ishlatilganda undovlik maʼno kasb etadi (masalan, *God!, Shame!, Heavens!*).

Ingliz tilshunosligida undovlarning funksional tasnifi ham ishlab chiqilgan. Ular quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Emotiv undovlar – soʻzlovchining ichki hissiyotini (hayrat, qoʻrquv, gʻazab, quvonch va h.k.) bildiradi (*Oh!, Wow!, Ugh!, Damn!*);
2. Chaqiriq undovlari – tinglovchiga murojaat qiluvchi birliklar (*Hey!, Yoohoo!, Shh!*);
3. Reaksiya undovlari – soʻzlovchi fikrini davom ettirish yoki tasdiqlash uchun ishlatiladi (*Huh?, Hmm, Uh-huh*);
4. Tasdiq va inkor undovlari – muloqotda rozi yoki norozi holatni ifodalaydi (*Yes, No, Okay*);
5. Munosabat bildiruvchi undovlar – soʻzlovchining baho yoki modal munosabatini bildiradi (*Well!, Indeed!, Really?*).

Bu tasnif oʻzbek tilidagi soʻz-gaplar (masalan, “ha”, “yoʻq”, “xoʻp”, “voy”, “afsus”, “barakalla”) bilan maʼno jihtadan muayyan oʻxshashliklarga ega. Shu sababli, ingliz tilidagi undovlarni oʻzbek tilidagi soʻz-gaplar bilan qiyoslash, ularning semantik-pragmatik tabiatini ochish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ingliz tilida ayrim undovlar boshqa soʻz turkumlarini hosil qilishda ham ishtirok etadi. Masalan, *wow* soʻzi *She wowed them during the talk* shaklida feʼlga aylanadi; *yum* soʻzi *yummy* sifat shaklini hosil qiladi. Bu holat undovlarning nutqda faol oʻzgaruvchan, dinamik birliklar ekanligini koʻrsatadi.

P. G. Montes va F. Ameka tadqiqotlarida undovlarning ijtimoiy va pragmatik xususiyatlari ham yoritiladi. Ularning fikricha, undovlar soʻzlovchining muloqotdagi intonatsiyasi, ijtimoiy maqomi va nutqdagi



xushmuomalalik darajasini ham ifoda etadi. Masalan, *Oh!* yoki *Wow!* kabi undovlarning qo'llanish chastotasi va ohangi vaziyat, adresat va kontekstga qarab o'zgaradi.

Ular nafaqat struktura-semantik xususiyatlari bilan, balki funksional-kommunikativ jihatlar bilan ham ajralib turadi.

E. Goffman uchun “response cry” deganda asosan *ouch*, *oops*, *yuk*, *wow*, *eh*, *ah*, *aha*, *oh* kabi ifodalar tushuniladi. Ularni u so'z emas (non-word) deb ataydi, chunki “so'z bo'lmagan birliklar lingvistik ma'noda produktiv emas, ularning tildagi o'rni — undov sifatida ishlatilishidagina iborat... shuning uchun ularni to'liq til tarkibiga kiritib bo'lmaydi”.

Shu bilan birga, E. Goffman ayrim istisnolarni tan oladi: bunday tovushlar turli tillarda uchrashi va barqaror shakllarga ega bo'lishi sababli, ularni semiword (“yarim so'z”) deb atash mumkinligini bildiradi. So'kinish so'zlari esa, albatta, morfologik jihatdan faolroq va til tizimida barqarorroq o'rin egallaydi. Shu bois ularni ham response cry toifasidan butunlay chiqarib tashlash mumkin emas — ular ko'rsatish (display) va lingvistik ifoda (linguistic item) o'rtasidagi uzluksizlikda joylashgan.

Konseptualistlar va E. Goffman qarashlarida ikki umumiy nuqta mavjud:

1. Undovlar o'zlari mustaqil gap sifatida qo'llanilishi mumkin va bu to'liq, ellipsisiz (ya'ni, qisqartirilmagan) ifoda shaklidir.
2. Undovlar hissiy yoki ruhiy holat bilan bog'liqdir.

Olim ushbu ikki mezonni undovlarni aniqlash uchun ishchi tavsif sifatida qabul qiladi. Shuningdek, u konseptualistlarning birlamchi/ikkilamchi ajratishini saqlagan holda, asosan birlamchi undovlarga e'tibor qaratadi, chunki bunday undovlarning boshqa sintaktik kategoriyalarda muqobili yo'q.

So'nggi 30 yilda tilshunoslar va faylasuflar har doim til ma'nosi faqat deskriptiv emasligini o'rganishgan. Masalan, Searle va Austinning nutq aktlari nazariyasi (speech-act theory) haqiqat-shartli bo'lmagan ma'nolarni ham tahlil qiladi.

So'z-gaplar zamonaviy rus tilining sintaksi tizimida o'ziga xos, kontekstga bog'liq sintaktik birlik sifatida qaraladi va ularning tadqiqi lingvistika fanida katta e'tibor qozonmoqda. Ular nafaqat struktura-semantik xususiyatlari bilan, balki funksional-kommunikativ jihatlar bilan ham ajralib turadi.

Rus tilshunosligida tarixiy jihatdan so'z-gaplar uch bosqichda rivojlandi: XVIII–XX asr boshidagi dastlabki nazariy qarashlar, V. V. Vinogradovning o'rta XX asrdagi to'liq grammatik konsepsiyasi, va 1970-yillardan hozirgi kungacha bo'lgan zamonaviy tadqiqotlar.

So'z-gaplar nutq jarayonida to'liq gapning vazifasini bajaruvchi, ammo struktur jihatdan oddiy so'z shaklida namoyon bo'luvchi birliklardir. Ular grammatik jihatdan bo'linmaydigan, leksik-morfologik tarkibi jihatidan partikllar, modal va undov so'zlar orqali ifodalanadigan, butun bir fikr, hissiyot yoki iroda ifodasini bildiruvchi sintaktik hodisadir. Rus tilshunoslaridan N. S. Kovalev, V. V. Babaytseva, O. V. Prussova kabi olimlarning tadqiqotlarida so'z-gaplar inson hissiyotini, munosabatini, bahosini ifodalovchi mustaqil kommunikativ birlik sifatida talqin etiladi. N.S.Kovalev ularni, xususan, virtual muloqot sharoitida ham faol ishlatiluvchi, hissiy-pragmatik ma'noga ega nutqiy birlik sifatida ko'rsatadi.

V. V. Vinogradovning tadqiqotlari so'z-gaplarning kategoriyaviy statusini aniqlashda asos bo'lib xizmat qilgan va ularning modalligi, kontekstual bog'liqligi va emosional ifodasi til tizimida alohida o'rinni egallashini ko'rsatadi.

N. S. Kovalev fikricha, zamonaviy tadqiqotlarda so'z-gaplarning lingvistik va antropogen potentsiali keng o'rganilmoqda. U ta'kidlaydiki, internet va virtual kommunikatsiya so'z-gaplarning shakl va mazmunini o'zgartirib, ularni yangi kommunikativ vazifalarni bajaradigan mustaqil birliklarga aylantirmoqda. Masalan, «фэйспалм», «Адвокаат!» kabi internet-memlardan kelib chiqqan so'z-gaplarning virtual muloqotda mustaqil kommunikativ birlik sifatida ishlatilishini namoyon qiladi. Shu bilan birga, so'z-gapning modallik va aksiologik qiymati nutqiy individualizatsiya va kontekstual sharoitga bog'liq bo'lib, ular til foydalanuvchisining lingvokognitiv va kommunikativ kompetentsiyasini ifodalaydi.

N.S.Kovalevning ishlarida so'z-gapning struktura-semantik va funksional-pragmatik resurslari, ularning derivatsion, tarqatish, kombinatsion va noverbal transformatsiyalari, shuningdek, kommunikativ-pragmatik



zonalaridagi sinxronik va diaxronik o'zgarishlar batafsil tahlil qilingan. Masalan, «Ничего!» → «Ничего себе!» yoki «Спасибо!» → «Спасибуще!» kabi transformatsiyalar so'z-gapning izomorfik va modallik xususiyatlarini ko'rsatadi, bunda shakl o'zgarishi nutqiy ma'no va modallikni ham o'zgartiradi.

Shu asosda, N.S. Kovalev so'z-gapning semantikasini ikki asosiy element — funktsional va aksiologik (baholovchi) komponentlardan iborat deb hisoblaydi.

Tilshunoslikda so'z-gaplar masalasi ko'plab rus olimlari tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ulardan biri V. V. Babaytseva bu birliklarni maxsus turdagi sodda gap sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, barcha oliy ta'lim darsliklarida “so'z-gap” deb ataluvchi birliklar alohida o'rganiladi; ular “Да”, “Нет”, “Конечно”, “Ну!” kabi butun fikrni ifodalovchi, hissiy va irodaviy ma'noga ega bo'lgan ifodalar shaklida namoyon bo'ladi. Olima so'z-gaplarni aniqlashda yagona yondashuvning yo'qligini, ularning tasnifida chalkashliklar mavjudligini qayd etadi.

V. V. Babaytseva fikricha, so'z-gaplarni boshqa gap turlaridan farqlovchi asosiy belgilar — bu ularning struktur jihatdan bo'linmasligi (neraschlenenost') va o'ziga xos leksiko-morfologik tarkibidir. Aynan shu ikki belgi — sintaktik va morfologik xususiyatlar — ushbu birliklarning o'ziga xos tabiati va grammatik maqomini belgilaydi. V. V. Babaytseva go'yasiga ko'ra, so'z-gaplar sodda gaplarning o'ziga xos turlaridan biri sifatida emotsional, irodaviy yoki modal ma'noni ifodalovchi butun kommunikativ birlik hisoblanadi.

N. S. Valginaning ta'kidlashicha, so'z-gaplar — bu shaklan bitta so'zdan yoki ajralmas bo'lakdan iborat, lekin butun mazmunli fikrni ifodalovchi mustaqil gaplardir. Ular oddiy gaplar tizimida alohida o'rin egallaydi va na ikki bo'lakli, na bir bo'lakli gaplar tarkibiga kiritiladi, chunki ular grammatik jihatdan bo'laklarga ajralmaydi va nominativ vazifani bajarmaydi.

N. S. Valgina so'z-gaplarni ularning nutqdagi vazifasiga ko'ra bir necha turga ajratadi:

1. Tasdiqlovchi so'z-gaplar – *Ha, To'g'ri, Albatta, Yaxshi, Mayli* kabi birliklar orqali fikrni tasdiqlash, rozi bo'lish yoki ma'qullash ma'nosi ifodalanadi.

2. Inkori so'z-gaplar – *Yo'q, To'g'ri emas, Aslo yo'q* kabi shakllar fikrni rad etish yoki inkor etish uchun xizmat qiladi.

3. So'roq so'z-gaplar – *Ha?, Nima?, Rostmi?, Shundaymi?* kabi qisqa birliklar so'rov, ajablanish yoki tekshiruv ma'nosini bildiradi.

4. Emotsional baholovchi so'z-gaplar – *Voy!, Obbo!, Xudo haqqi!, Eh!, Tfu!* kabi undov shakllar orqali kuchli hissiy holat — hayrat, afsus, g'azab yoki quvonch ifodalanadi.

5. Buyruq ohangli so'z-gaplar – *Tss!, Jim!, Hoy!* singari birliklar orqali buyruq, ogohlantirish yoki e'tibor chaqirish ma'nosi hosil qilinadi.

N. S. Valginaning fikricha, so'z-gaplar asosan dialogik nutqda, ya'ni jonli so'zlashuv jarayonida qo'llanadi va so'zlashuv uslubiga xos bo'ladi. Ular emotsional-ekspressiv ma'noni ifodalashda, suhbatdoshlar o'rtasida kommunikativ aloqani ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu birliklar lisoniy jihatdan ixcham, lekin semantik jihatdan to'liq kommunikativ yukni ko'taradi.

XULOSA

So'z-gap va to'liqsiz gaplar tildagi ifoda ixchamligi, emotsional yuklama va kommunikativ maqsadni mujassamlashtirgan sintaktik birliklardir. Ular insonning hissiy holatini, bahosini va fikrini qisqa, ammo mazmunan to'liq tarzda yetkazish imkonini beradi.

A. A. Shaxmatov to'liqsiz gaplarni muloqot jarayonida shakllanadigan, lekin mazmunan to'liq fikr ifodalovchi birliklar sifatida izohlagan. V.V. Vinogradov esa so'z-gaplarni modallik va ekspressivlik markazi sifatida ajratgan. N.S. Kovalev ularni kommunikativ-pragmatik va antropogen resurs deb ta'riflab, so'z-gaplarning zamonaviy, ayniqsa virtual nutqda shaxsning emotsional va aksiologik holatini ifodalashdagi ahamiyatini asoslagan.

V. V. Babaytseva va O. V. Prussova so'z-gaplarni sodda gaplarning o'ziga xos turi sifatida talqin qiladi. Ular emotsional, irodaviy va modal ma'noni ifodalovchi mustaqil kommunikativ birlik bo'lib, nutqning baholovchi va interaktiv funksiyalarini bajaradi. Xorijiy olimlar — F. Ameka va D. Vilkins esa interjektsiyalarni



his-tuyg'ularni ifodalovchi universal nutq birliklari deb e'tirof etgan bo'lib, bu hodisa so'z-gaplarning semantik tabiatiga yaqin turadi.

V. V. Babaytseva, L. Yu. Maksimovlarning “Современный русский язык” asarida keltirilishicha, to'liqsiz gaplar muammosini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega maqola I. A. Popovaning «Zamonaviy rus tilida to'liqsiz gaplar» bo'lib, u bu murakkab hodisaga e'tiborni jalb qildi va ko'p yillik munozarani ochdi, unda to'liqsiz gaplarning struktura va semantik xususiyatlari turlicha baholandi. Munozarali savollardan biri shundan iborat: to'liqsiz gaplarni to'liq gaplar bilan “taqqoslash” mumkinmi?

An'anaviy tilshunoslikda to'liqsiz gaplar turli gap bo'laklari yetishmay qolgan to'liq gaplarning variantlari sifatida baholangan. A.M. Peshkovskiy bejiz aytmagan: “...to'liqsiz gaplar, ularning og'zaki nutqda, shubhasiz, to'liq gaplardan ancha ko'p bo'lsa-da, ongimizda har doim to'liqlar bilan tenglashtiriladi”.

I. A. Popova qayd etganidek, to'liqsiz gaplarni to'liq gaplar bilan tenglashtirib bo'lmaydi, chunki ba'zi gap bo'laklarini qo'shish ba'zan nafaqat kerak emas, balki mumkin emas, chunki bu gapni sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin. Ushbu fikr bir qator tadqiqotlarda rivojlantirildi, natijada ko'plab struktura jihatdan to'liqsiz gaplar to'liq gaplar sifatida baholana boshladi, chunki ma'noda ular yetarlicha to'liq hisoblanadi, faqat gapning informativ semantikasi tomoni hisobga olinadi. To'liqlik va to'liqsizlik muammosini muhokama qilish to'liqsiz gaplarning xususiyatlarini, xususan elliptik turlarini, tushunishga imkon berdi. Shunday qilib, «To'liqsiz gaplarni to'liq gaplar bilan tenglashtirish mumkinmi?» degan savolga qat'iy («ha» yoki «yo'q») javob berib bo'lmaydi, chunki javob berishda to'liqsiz gaplarning ko'p qirrali xususiyatini hisobga olish, ularning strukturasini farqlash zarur.

Demak, so'z-gap va to'liqsiz gaplar zamonaviy til tizimida bir-birini to'ldiruvchi, ammo turli sintaktik funksiyalarga ega hodisalardir. Ular tildagi ixchamlik, emotsional ekspressivlik va antropotsentrik yondashuvni ifodalaydi hamda bugungi badiiy, og'zaki va virtual nutqda inson shaxsining kommunikativ imkoniyatlarini keng namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ameka F.K. Interjections: The universal yet neglected part of speech // Journal of Pragmatics . – 1992. – №18. – P. 101–118. – North-Holland.
2. Bloomfield L. Language. Chicago: University of Chicago Press, 1984. (1933). <https://www.yumpu.com/en/document/read/11576293/language-bloomfield-leonard-1887-1949-pdf-rare-books-at>.
3. Бабайцева В.В. Избранное. 1955—2005: Сборник научных и научно-методических статей / Под ред. проф. К.Э. Штайн. — М. — Ставрополь: Издательство СГУ, 2005. — С. 103–114
4. Wilkins David P. Interjections as deictics // Journal of Pragmatics. – 1992. – №. 18. – P. 119–158
5. Валгина Н.С. Современный русский язык: Синтаксис: Учебник — 4-е изд., испр. — М.: Высш. шк., 2003 — 416 с.
6. Ковалев Н.С. Особенности выявления «оценочности» в словах- предложениях и близких к ним по значению конструкциях / Н.С. Ковалев // Известия Чеченского государственного педагогического института. – 2016. – Т. 9. – № 2 (14). – С. 74–79 (0,3 п.л.)
7. Montes R.G. The development of discourse markers in Spanish: Interjections // Journal of Pragmatics – 1999. – № 31. – P. 1289–1319.
8. Herder J.G. On the origin of language. In On the origin of language: Two essays. Translated by J.H.Moran, A. Gode. Chicago: University of Chicago Press, Ltd., London, 1966.
- ?? Absmadova, M. I. (2024). Exploring the language of diplomacy: Understanding the significance and evolution of diplomatic terms. Miasto Przyszłości, 49, 1315-1318.

¹ Isroilovna, A. M. (2022). Methodological frameworks in written translation. In Online-Conferences" Platform (pp. 37-40).

¹ Absmadova, M. (2024). Structural Analysis of Diplomatic Terminology: Single-Component Vs. Multi-Component Terms. Spanish Journal of Innovation and Integrity.